



YASHIL IQTISODIYOT FANINING GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI MUAMMOLARINI KAMAYTIRISHDAGI AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20082712>

Boltayeva Sh.B

Buxoro Davlat Universiteti katta o'qituvchisi

Amrulloeva Madinabonu

BuxDu talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning mohiyati, asosiy tamoyillari va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklari hamda dunyo tajribasi tahlil qilingan. O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati, mavjud muammolar va istiqbolli imkoniyatlar ko'rib chiqilgan. Maqola barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil iqtisodiyotning muhim o'rin tutishini asoslab beradi.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, qayta tiklanadigan energiya, resurs samaradorligi, ekologiya, yashil texnologiyalar, iqtisodiy o'sish, energiya tejash, O'zbekiston.*

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va ekologik muammolar insoniyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. An'anaviy "qora" iqtisodiyot ya'ni neft, yoqilg'ilar, atrof-muhitni ifloslantirish va resurslardan haddan tashqari foydalanish, sayyoramiz barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shu sababli so'nggi yillarda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi global darajada muhim yo'nalishga aylandi.

Yashil iqtisodiyot o'zi nima degani? Yashil iqtisodiyot bu past uglerodli, resurslardan oqilona foydalanadigan va jamiyatning barcha qatlamlari manfaatini hisobga oladigan iqtisodiy model

tushuniladi¹. Bu yondashuvning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishga erishish bilan birga tabiatga zarar yetkazmaslik, aksincha, uni asrash va tiklashdir. Bunday iqtisodiyotda inson farovonligi va ekologik muvozanat bir-biriga zid emas, balki o'zaro bog'liq holda qaraladi. Mazkur model an'anaviy iqtisodiyotdan tubdan farq qiladi. U tabiiy boyliklarni shunchaki resurs emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy aktiv sifatida baholaydi. O'rmonlar, suv zaxiralari, tuproq unumdorligi va biologik xilmaxillikni saqlash orqali kelajak avlodlar uchun ham imkoniyatlar yaratish asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, chiqindilarni kamaytirish,

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot



energiyani tejash va qayta tiklanadigan manbalarga o'tish muhim yo'nalishlar sifatida ko'riladi.

Yashil iqtisodiyot bir nechta muhim tamoyillarga asoslanadi. Avvalo, adolat va farovonlik prinsipiga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish natijalari jamiyatning barcha qatlamlariga yetib borishi kerak. Ikkinchidan, tabiatning tiklanish chegaralari inobatga olinadi ya'ni resurslardan foydalanishda muvozanat saqlanadi. Bundan tashqari, resurs samaradorligini oshirish, chiqindilarni minimal darajaga tushirish, innovatsiyalarni qo'llash va jamiyatning keng qatlamlarini qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish ham muhim ahamiyatga ega.

Yashil iqtisodiyotning amaliy ko'rinishlari turli sohalarda namoyon bo'ladi. Masalan, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, ekologik transportni rivojlantirish, energiya tejankor binolar qurish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish va suvni tejoychi qishloq xo'jaligini rivojlantirish shular jumlasidandir. Bu yo'nalishlar nafaqat atrof-muhitni himoya qiladi, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar ham yaratadi. Ushbu modelning bir qancha afzalliklari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Zararli gazlar chiqindisi kamayadi;
2. Havo va suv sifati yaxshilanadi;
3. Tabiiy ekotizimlar tiklanadi;

4. Yangi ish o'rinlari yaratiladi;

5. Energiya va resurs xarajatlari qisqaradi;

6. Aholi salomatligi yaxshilanadi;

7. Turmush sifati oshadi;

8. Kambag'allik darajasi pasayadi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish real va samarali yo'ldir. Yevropa Ittifoqi "Yashil kelishuv" doirasida 2050-yilga borib iqlim neytralligiga erishishni maqsad qilgan va 2030-yilga chiqindilarni 55% ga kamaytirishni rejalashtirmoqda². Xitoy qayta tiklanadigan energiya va elektr transport vositalari ishlab chiqarishda yetakchilik qilmoqda 2025-yilda toza energiya sektorlari mamlakat YaIMining 11,4% ini tashkil etgan. Janubiy Koreya esa "Yashil o'sish" strategiyasi orqali iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtirdi.³

O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyot yo'nalishi ayniqsa muhimdir. Mamlakatda suv tanqisligi, energiya samaradorligining pastligi va iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri kabi muammolar mavjud. 2019-yilda qabul qilingan Prezidentning PQ-4477-sonli qarori bilan "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" tasdiqlangan. Bundan tashqari, 2025-yil

² https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/european-green-deal_en

³ <https://dashboards.sdindex.org/rankings/>



“Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilingan bo‘lib, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida yashil tamoyillarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan⁴. Qayta tiklanadigan energiya loyihalari quyosh va shamol stansiyalari kengaymoqda, energiya tejamligi oshirilmoqda va xalqaro hamkorlik kuchaymoqda. Yurtimizda, ayniqsa, quyosh energiyasi bo‘yicha katta imkoniyatlar mavjud.

Biroq bu jarayon oson kechmaydi. Asosiy muammolar quyidagilardir:

1. Yangi texnologiyalarni joriy etish katta mablag‘ talab qiladi;
2. An’anaviy energiya manbalaridan gaz va neftdan voz kechish jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy qarshiliklar yuzaga keladi;
3. Texnologiya va kadrlar yetishmasligi;
4. Iqlim o‘zgarishining ta’siri natijasida suv tanqisligi yuzaga kelmoqda, Orol dengizi muammosi keskinlashmoqda hamda moliyaviy resurslar cheklanganligi.

Ushbu muammolarni yengish uchun to‘g‘ri davlat siyosati, xorijiy investitsiyalar, ta’lim tizimini takomillashtirish va jamoatchilikni faol jalb etish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, yashil iqtisodiyot shunchaki siyosiy yo‘nalish emas, balki zamonaviy zaruratdir. U ekologik muammolarni hal qilish, iqtisodiy o‘sishni davom ettirish va kelajak avlodlar uchun munosib hayot

sharoitini yaratish imkonini beradi. Har bir fuqaro kundalik hayotida energiyani tejash, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik mas’uliyatni his qilish orqali bu jarayonga o‘z hissasini qo‘sha oladi.

⁴ <https://lex.uz/docs/-4539502>



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot
2. Sustainable Development Report - <https://dashboards.sdindex.org/rankings/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli Qarori "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4539502>
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. - UNEP, 2011.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmoni "O'zbekiston–2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida".
6. European Commission. The European Green Deal. https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019_2024/european-green-deal_en
7. China Energy Transition Review 2025. <https://ember-energy.org/latest-insights/china-energy-transition-review-2025/>
8. Matyakubovna, SF Kamolovna. O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IMKONIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4 (07), 214-221
9. Matyakubovna DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL CERTIFICATION AND STANDARDIZATION SYSTEMS IN UZBEKISTAN AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING 4 (1), 60-67
8. Болтаева, Шахноз. "WASTE PROBLEM, SECOND LIFE OF WA DEVELOPMENT OF AGRICULTURE ROLE OF MARKETING." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
11. Болтаева, Шахноз. "The cost-effectiveness of the use of water resources in agriculture." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).
12. Bebudovna, Boltayeva Shaxnoz. "ATROF-MUHITNING IFLOSLANISHI VA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI." *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH* 2.17 (2024): 10-12.